



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
V-QISM**



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
V-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOIYILLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
I. R. Berdikulova	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIYA VA K-MEANS KLASSTER TAHLILI.....	16
Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li	
Turobova Hulkar Rustamovna	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
Davletov Ikrom Raximberganovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI.....	33
Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ	38
Абдуллаева М.Б.	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	44
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li	
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI.....	51
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH.....	55
Niyozov Zuxur Davronovich	
Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО	58
Худойкулова Дилора Дилмуродовна	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSİYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI.....	64
Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi	
XALQARO MOLİYAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	71
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLİYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	77
Karimova Dilafruz Sadriiddin qizi	
МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	82
Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI	89
Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi	
JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARNING O'RNI	94
Otarbayev Zamir Zairovich	



SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI	100
Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich	
ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	107
Дониёрова Зухрабону Алишер кизи	
TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	113
Xo'jamov Akbar Bahriddinovich	
KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI.....	118
Djumayev Askar Xaydarovich	
SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI	123
Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li	
Qahhorova Nargiza Qahramonovna	
Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li	
Jamilov Firdavs Otabek o'g'li	



SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI

Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

"Real iqtisodiyot" kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

E-mail: erdonovmuhammad@gmail.com

Qahhorova Nargiza Qahramonovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

"Iqtisodiyot" fakulteti talabasi

Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

"Iqtisodiyot" fakulteti talabasi

Jamilov Firdavs Otabek o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

"Iqtisodiyot" fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand viloyati umumiy ovqatlanish korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholashning nazariy-uslubiy jihatları hamda amaliy holati tahlil qilinadi. Tadqiqotda resurslardan foydalanish ko'rsatkichlari dinamikasi o'rganilib, ularga ta'sir etuvchi omillar guruhları aniqlangan. Shuningdek, viloyat ovqatlanish korxonalarida resurs tejamkorligini oshirish, ishlab chiqarish chiqindilarini kamaytirish va raqamli boshqaruv usullarini joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: umumiy ovqatlanish korxonalari, iqtisodiy resurslar, resurslardan foydalanish samaradorligi, resurs qaytimi, resurs sig'imi, mehnat unumdorligi, moddiy-texnik baza, moliyaviy resurslar, samaradorlik ko'rsatkichlari, resurs tejamkorligi.

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological aspects, as well as the practical situation, of assessing the efficiency of economic resource use in catering establishments in the Samarkand region. The study examines the dynamics of resource use indicators and identifies groups of factors influencing them. It also substantiates ways to improve resource efficiency in the region's catering establishments by reducing production waste and implementing digital management methods.

Keywords: catering establishments, economic resources, resource efficiency, return on resources, resource capacity, labor productivity, material and technical resources, financial resources, performance indicators, resource efficiency.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и методологические аспекты, а также практическая ситуация оценки эффективности использования экономических ресурсов на предприятиях общественного питания Самаркандской области. Исследование изучает динамику показателей использования ресурсов и выявляет группы факторов, влияющих на них. Также обосновываются пути повышения эффективности использования ресурсов на предприятиях общественного питания региона за счёт сокращения производственных отходов и внедрения методов цифрового управления.

Ключевые слова: предприятия общественного питания, экономические ресурсы, эффективность использования ресурсов, отдача от ресурсов, ресурсная мощность, производительность труда, материально-техническая база, финансовые ресурсы, показатели эффективности, эффективность использования ресурсов.



KIRISH

So'nggi yillarda umumiy ovqatlanish sohasi uchun iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari ham kengaymoqda. Jumladan, 2025-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvarga qadar umumiy ovqatlanish korxonalariga foyda solig'i stavkasini 50 foizga kamaytirish belgilangan¹. Bunday imtiyozlar sohada rasmiy faoliyatni kengaytirish, investitsion faollikni oshirish, naqd pulsiz hisob-kitoblarni rag'batlantirish va korxonalarning moliyaviy imkoniyatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Biroq tashqi rag'batlantirish choralarinig amaliy samarasi korxonaning ichki resurs salohiyatidan foydalanish darajasiga bog'liq. Agar umumiy ovqatlanish korxonasida tannarx hisobi, ombor nazorati, mahsulot chiqimi, mehnat taqsimoti, mijozlar oqimini boshqarish va raqamli hisob-kitob tizimlari yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, berilayotgan imtiyozlar kutilgan iqtisodiy natijani to'liq bermasligi mumkin.

Samarqand viloyati misolida ushbu mavzuning dolzarbligi yanada kuchayadi. Viloyat respublikamizning eng yirik tarixiy-madaniy va turistik hududlaridan biri bo'lib, unda mehmonxona, transport, savdo, hunarmandchilik va umumiy ovqatlanish xizmatlari o'zaro bog'langan holda rivojlanadi. Samarqand shahriga hamda viloyatning boshqa turistik manzillariga tashrif buyuruvchi mahalliy va xorijiy sayyohlar oqimi umumiy ovqatlanish xizmatlariga bo'lgan talabni oshiradi. Shu jihatdan, umumiy ovqatlanish korxonalari faqat aholiga ovqatlanish xizmatini ko'rsatuvchi subyekt emas, balki hududiy turizm infratuzilmasining muhim bo'g'ini sifatida ham baholanadi. Ularning samarali ishlashi viloyatda xizmatlar sifati, turistlar qoniqishi, kichik biznes barqarorligi va mahalliy iqtisodiy faollikka bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil 1-sentabr holatiga Samarqand viloyatida umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2 582 tani tashkil etgan bo'lib, shundan 12 tasi yirik korxonalar, 2 570 tasi esa kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan². Bu ko'rsatkich viloyatda umumiy ovqatlanish sohasi asosan kichik biznes va mikrofirmalar hisobiga rivojlanayotganini ko'rsatadi. Kichik biznes subyektlarida esa resurslardan foydalanish samaradorligi masalasi ayniqsa muhimdir, chunki bunday korxonalarda moliyaviy zaxiralar cheklangan, xomashyo xarajatlari yuqori sezgirlikka ega, mehnat taqsimoti esa ko'pincha ixcham boshqaruv shakllari asosida tashkil etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Umumiy ovqatlanish korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish masalasi xizmatlar iqtisodiyoti, ovqatlanish korxonalari iqtisodiyoti, servis menejmenti, xarajatlar hisobi, marketing va raqamli boshqaruv yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq holda o'rganilgan. Xorijiy adabiyotlarda ushbu masala, avvalo, restoran va oziq-ovqat xizmatlari korxonalarida operatsion boshqaruv, xarajatlarni nazorat qilish, mijozlar oqimini tartibga solish hamda xizmat sifati orqali samaradorlikni oshirish nuqtayi nazaridan yoritilgan. Jumladan, B. Davis, A. Lockwood, I. Pantelidis va P. Alcottlarning "Food and Beverage Management" asarida ovqatlanish xizmatlari korxonalarinig kundalik faoliyatini boshqarish, mahsulot ishlab chiqarish jarayoni, xizmat ko'rsatish tizimi va boshqaruv qarorlarining iqtisodiy natijalarga ta'siri keng tahlil qilingan³. P. Kotler, J. Bowen, J. Makens va S. Balogluning "Marketing for Hospitality and Tourism" asarida esa mehmondo'stlik va ovqatlanish xizmatlari bozorida mijoz ehtiyojini aniqlash, raqobat ustunligini shakllantirish va xizmat qiymatini oshirish masalalari asoslangan⁴.

Restoran xo'jaligida iqtisodiy samaradorlikni o'lchash va daromadni boshqarish yo'nalishida S. E. Kimesning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Muallif restoranlar faoliyatini baholashda faqat sotuv hajmi yoki bir xodimga to'g'ri keladigan tushum bilan cheklanmasdan, o'rindiqdan foydalanish vaqti, mijozlar oqimi, stol aylanish tezligi hamda "mavjud o'rindiq-soatga to'g'ri keladigan daromad" kabi ko'rsatkichlardan foydalanish zarurligini asoslagan⁵. Bu yondashuv umumiy ovqatlanish korxonalarida mehnat, moddiy va vaqt resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash uchun muhim uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ushbu mavzuga yaqin ilmiy qarashlar B. A. Abdukarimovning "Ichki savdo iqtisodiyoti" o'quv adabiyotlarida uchraydi⁶. Mazkur manbalarda savdo va xizmat ko'rsatish korxonalarinig iqtisodiy mazmuni, tovar aylanmasi, xarajatlar, mehnat resurslari, aylanma mablag'lar, foyda va rentabellik ko'rsatkichlari

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PF-132-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to'rtinchi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-7089547>

2 <https://samstat.uz>

3 Davis B., Lockwood A., Pantelidis I., Alcott P. Food and Beverage Management. Routledge, 2013 https://books.google.com/books/about/Food_and_Beverage_Management.html

4 Kotler P., Bowen J.T., Makens J.C., Baloglu S. Marketing for Hospitality and Tourism. Pearson, Global Edition

5 Kimes S.E. Restaurant Revenue Management. Cornell Hotel and Restaurant Administration Quarterly <https://journals.sagepub.com/doi/10.1177/001088049803900308>

6 Abdukarimov B.A. Ichki savdo iqtisodiyoti. Darslik. — Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2010.



umumiy iqtisodiy tahlil nuqtayi nazaridan yoritilgan. R. U. Asatov va D. T. G'afforovanning "Umumiy ovqatlanish korxonalari hisob-kitob va kalkulasiya" o'quv qo'llanmasida esa mahsulot bahosini belgilash, kalkulasiya tuzish, moddiy javobgar shaxslar faoliyati va hisobot ko'rsatkichlari amaliy jihatdan bayon qilingan.⁷

So'nggi yillarda umumiy ovqatlanish korxonalari samaradorligini oshirish bo'yicha mahalliy maqolalarda ham amaliy yo'nalishlar ko'proq yoritilmoqda. Masalan, B. Eshniyozovning umumiy ovqatlanish korxonalari, xususan, oilaviy korxonalar samaradorligini oshirishga bag'ishlangan maqolasida xarajatlarni qisqartirish, foydalilikni oshirish va ishlab chiqarish-xizmat ko'rsatish jarayonlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan⁸.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot umumiy ovqatlanish korxonalari resurslarni boshqarish samaradorligini baholashning ilmiy-nazariy asoslari hamda amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, tadqiqot jarayonida resurslarni boshqarishning tizimli, funksional va jarayonli yondashuvlari uyg'unlashgan holda qo'llanildi. Ilmiy izlanish davomida iqtisodiy resurslar tushunchasining mohiyati, ularning tasnifi, samaradorlik mezonlari va ko'rsatkichlari tizimi mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari asosida chuqur tahlil qilindi. Shu bilan birga, umumiy ovqatlanish sohasining o'ziga xos xususiyatlari — ishlab chiqarish, sotish va xizmat ko'rsatish jarayonlarining uzviy birligi, mahsulotlarning tez buziluvchanligi, talabning mavsumiy o'zgaruvchanligi, shuningdek, sohaning kichik va o'rta biznesga xos bo'lgan yuqori raqobatbardosh muhiti kabi omillar resurslarni boshqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi muhim jihatlar sifatida e'tiborga olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Samarqand viloyatida umumiy ovqatlanish xizmatlari rivoji boshqa xizmat turlari bilan ham uzviy bog'langan. Savdo xizmatlari iste'mol bozorining kengligini, transport xizmatlari hududlararo harakat va yetkazib berish imkoniyatlarini, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari esa onlayn buyurtma, elektron to'lov va raqamli marketing imkoniyatlarini kuchaytiradi. Shaxsiy xizmatlarning kengayishi esa aholining pullik xizmatlardan foydalanish madaniyati ortib borayotganini bildiradi. Shu sababli umumiy ovqatlanish korxonalarining rivojlanishi alohida olingan bir tarmoq doirasida emas, balki xizmatlar sohasining umumiy o'sishi, hududiy talab, turizm salohiyati va tadbirkorlik muhiti bilan birgalikda baholanishi lozim.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlari kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni (dekabr holatiga, birlikda)⁹

Hududlar	2022	2023	2024	2025
O'zbekiston Respublikasi	36 465	28 719	28 833	30 104
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 481	1 356	1 318	1 417
Andijon viloyati	2 017	1 252	1 318	1 295
Buxoro viloyati	2 542	2 232	2 129	2 049
Jizzax viloyati	1 594	1 220	1 177	1 266
Qashqadaryo viloyati	1 978	1 668	1 637	1 638
Navoiy viloyati	1 531	1 286	1 267	1 397
Namangan viloyati	1 668	1 352	1 308	1 351
Samarqand viloyati	4 564	3 427	3 519	3 530
Surxondaryo viloyati	1 880	1 545	1 672	1 752
Sirdaryo viloyati	961	690	650	723
Toshkent viloyati	4 113	3 151	3 034	3 267
Farg'ona viloyati	2 913	2 263	2 106	2 070
Xorazm viloyati	1 727	1 666	1 682	1 734
Toshkent shahri	7 496	5 611	6 016	6 615

Jadvalda O'zbekiston hududlari kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari soni turlicha hududiy zichlikka ega ekanini ko'rsatadi. Respublika bo'yicha

7 Asatov R.U., G'afforova D.T. Umumiy ovqatlanish korxonalari hisob-kitob va kalkulasiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2007.

8 Eshniyozov B. Umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyatining samaradorligini oshirish yo'llari: oilaviy korxonalar misolida. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2025. <https://media.neliti.com/media/publications/636735-umumiy-ovqatlanish-korxonalari-faoliyati-87a0f6cc.pdf>

9 Manba: www.stat.uz



ushbu sohada faol subyektlar soni 2022-yilda 36 465 ta bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 28 719 taga kamaygan, 2024-yilda 28 833 ta, 2025-yilda esa 30 104 tani tashkil etgan. Bu holat 2023-yilda sohada sezilarli kamayish kuzatilganini, keyingi yillarda esa asta-sekin tiklanish bosqichi boshlanganini bildiradi. Shu sababli 2023-yildagi pasayish tadbirkorlik subyektlari tarkibining aniqlashtirilishi va faol bo'lmagan birliklarning statistik registrlarda qayta tartibga solinishi bilan ham bog'liq talqin qilinadi.

Hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keladi. Poytaxtda yashash va ovqatlanish sohasidagi tadbirkorlik subyektlari soni 2022-yilda 7 496 ta, 2025-yilda esa 6 615 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich Toshkent shahrining yirik iste'mol bozori, aholi zichligi, ishbilarmonlik muhiti, turizm va xizmatlar infratuzilmasi nisbatan yuqori darajada shakllangani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, poytaxtdan keyingi muhim hududlardan biri sifatida Samarqand viloyati alohida ajralib turadi. Viloyatda ushbu sohada subyektlar soni 2022-yilda 4 564 ta, 2023-yilda 3 427 ta, 2024-yilda 3 519 ta, 2025-yilda esa 3 530 tani tashkil qilgan. Bu Samarqand viloyatining respublika hududlari orasida yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha yuqori tadbirkorlik salohiyatiga ega ekanini ko'rsatadi.

Samarqand viloyati ko'rsatkichlarini boshqa hududlar bilan solishtirganda, uning mavqei yanada aniqroq namoyon bo'ladi. 2025-yilda Samarqand viloyatida mazkur sohada 3 530 ta subyekt faoliyat yuritgan bo'lsa, Toshkent viloyatida bu ko'rsatkich 3 267 ta, Farg'ona viloyatida 2 070 ta, Buxoro viloyatida 2 049 ta, Surxondaryo viloyatida 1 752 ta, Xorazm viloyatida 1 734 ta bo'lgan. Demak, Samarqand viloyati poytaxtdan keyingi yirik hududiy markazlardan biri sifatida umumiy ovqatlanish va joylashtirish xizmatlari bozorida sezilarli o'ringa ega. Bu holat viloyatning tarixiy-madaniy turizm markazi sifatidagi mavqei, ichki va tashqi sayyohlar oqimi, transport yo'nalishlari, oliy ta'lim muassasalari, savdo obyektlari va aholining kundalik iste'mol ehtiyoji bilan bevosita bog'liq.

Samarqand viloyatida 2022–2025-yillar oralig'ida subyektlar soni 4 564 tadan 3 530 taga kamaygan bo'lsa-da, 2023-yildan keyingi davrda barqarorlashish kuzatiladi. Jumladan, 2023-yilda 3 427 ta bo'lgan ko'rsatkich 2024-yilda 3 519 taga, 2025-yilda esa 3 530 taga yetgan. Bu jarayon sohada dastlab statistik tartiblash va bozor tarkibining qayta tartibga solinishi yuz berganini, keyingi bosqichda esa faol subyektlar soni nisbatan barqaror darajada shakllanayotganini anglatadi. Shu jihatdan Samarqand viloyatida umumiy ovqatlanish korxonalari rivojini baholashda faqat korxonalar sonining mutlaq o'zgarishiga emas, balki ularning faol ishlashi, xizmatlar hajmi, mijozlar oqimi, savdo aylanmasi va resurslardan foydalanish samaradorligiga ham e'tibor qaratish zarur.

2-jadval
Samarqand viloyatida umumiy ovqatlanish faoliyatiga bevosita ta'sir
qiluvchi xizmat turlari hajmi (mlrd so'mda)¹⁰

Xizmat turlari	2020	2021	2022	2023	2024	2025*
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 986,9	6 700,1	10 514,6	15 716,0	20 264,2	25 977,9
Savdo xizmatlari	4 959,4	6 029,7	7 097,7	8 609,5	10 534,2	12 757,0
Transport xizmatlari	3 989,4	5 464,7	6 424,3	8 056,1	10 875,8	14 558,4
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	791,2	922,2	1 184,7	1 500,9	2 002,3	2 764,3
Shaxsiy xizmatlar	605,6	846,8	1 109,1	1 430,3	1 780,3	2 346,6
Xizmatlar – jami	20 083,8	27 457,5	36 116,9	47 746,7	61 018,0	78 163,0

Jadvalda Samarqand viloyatida umumiy ovqatlanish korxonalari rivoji xizmatlar sohasining umumiy kengayishi bilan bevosita bog'liq ekani ko'rsatilgan. 2020–2025-yillarda jami xizmatlar hajmi 20 083,8 mlrd so'mdan 78 163,0 mlrd so'mga yetib, qariyb 3,9 barobar oshgan. Bu holat viloyatda pullik xizmatlarga talab ortayotgani, tadbirkorlik muhiti kengayayotgani va xizmat ko'rsatish infratuzilmasi bosqichma-bosqich rivojlanayotganini bildiradi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 2020-yildagi 3 986,9 mlrd so'mdan 2025-yilda 25 977,9 mlrd so'mga yetgan. Ushbu ko'rsatkichning qariyb 6,5 barobar o'sishi Samarqand viloyatida restoran, kafe, oshxona, mehmonxona va turistik ovqatlanish xizmatlariga talab sezilarli darajada kengayganini anglatadi. Bu jarayonda viloyatning turistik salohiyati, aholi iste'mol faolligi va xizmat ko'rsatish obyektlarining ko'payishi muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

¹⁰ Manba: www.samstat.uz



Savdo xizmatlari hajmining 4 959,4 mlrd so'mdan 12 757,0 mlrd so'mga oshishi umumiy ovqatlanish korxonalari uchun xomashyo, oziq-ovqat mahsulotlari, yarim tayyor mahsulotlar va boshqa moddiy resurslar ta'minoti kengayib borayotganini ko'rsatadi. Transport xizmatlari hajmining 14 558,4 mlrd so'mga yetishi esa turistlar va mahalliy iste'molchilar harakati, shuningdek, ovqat yetkazib berish va logistika imkoniyatlari kuchayayotganini bildiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada Samarqand viloyati umumiy ovqatlanish korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish holati va ularni boshqarish samaradorligi har tomonlama tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Samarqand viloyati ovqatlanish korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligi umumiy ravishda yetarli darajada shakllanmagan bo'lib, moddiy, mehnat, moliyaviy, energiya va asosiy fondlar resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari respublika o'rtacha ko'rsatkichlari va ilg'or tajribalar bilan solishtirganda takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Xususan, moddiy sig'im va energiya sig'imi ko'rsatkichlarining pasayish tendensiyasi kuzatilgani, mehnat unumdorligi o'sish sur'atlarining pastligi, aylanma mablag'lar aylanishining sekinlashuvi, fond qaytimi ko'rsatkichining pasayib borishi resurslardan foydalanishda tizimli takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Resurs samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida xomashyo narxlarining o'zgarishi, xodimlarning malaka darajasi, asosiy fondlarning texnik holati, raqobat muhiti, institutsional omillar va korxona ichidagi boshqaruv tizimi kabi omillar aniqlanib, ularning har birining ta'sir ulushi miqdoriy jihatdan baholandi. Shuningdek, korxonalarda resurslarni rejalashtirish, taqsimlash va nazorat qilishning yagona tizimli mexanizmi mavjud emasligi, raqamli texnologiyalar va zamonaviy raqamli boshqaruv yechimlarining yetarli darajada joriy etilmaganligi, xodimlarning malakasini oshirish tizimining yo'lga qo'yilmaganligi, energiya tejash strategiyalarining ishlab chiqilmaganligi kabi tizimli muammolar aniqlandi.

Yuqoridagi mavjud masalalarni hal etish maqsadida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar resurslarni boshqarishning kompleks tizimini joriy etish, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash, xodimlar malakasini oshirish, moliyaviy va moddiy resurslardan foydalanishni optimallashtirish, energiya samaradorligini oshirish, asosiy fondlarni yangilash, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish hamda ilmiy-monitoring ishlarini muntazam olib borish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Xulosa qilib aytganda, Samarqand viloyati umumiy ovqatlanish korxonalarida resurslarni boshqarish samaradorligini oshirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, taklif etilgan chora-tadbirlarning amaliyotga joriy etilishi korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, xarajatlarni kamaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish, ishlab chiqarish chiqindilarini qisqartirish va atrof-muhitni muhofaza qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, viloyat umumiy ovqatlanish tarmog'ining jadal rivojlanishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga, aholining ovqatlanish xizmatlariga bo'lgan talabini sifatli qondirishga va hudud iqtisodiyotining umumiy o'sishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PF-132-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to'rtinchi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-7089547>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-sentabrdagi 589-son "Umumiy ovqatlanish korxonalarida hosil bo'ladigan oziq-ovqat chiqindilaridan samarali foydalanish va ularning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish hamda ortiqcha isrofgarchiliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2025-yil 17-sentabr. <https://lex.uz/uz/docs/-7730458>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2025-yil 30-yanvar. <https://lex.uz/uz/docs/-7369703>
4. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 22-iyuldagi O'RQ-784-son "Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risida"gi Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2022-yil 22-iyul. <https://lex.uz/uz/docs/-6126864>
5. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi. Samarqand viloyatining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi, 2024-yil. Samarqand, 2024.
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi: 2024-yil yanvar-dekabr. Toshkent, 2025.



7. Samarqand viloyati aholisining mehnatga layoqatli qatlami to'g'risida statistik ma'lumotlar. Kun.uz axborot agentligi, 2024.
8. Olimov O. O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining iqtisodiy resurslar samaradorligini oshirish masalalari // Raqamli iqtisodiyot. 2024. 11-son. B. 1225–1232.
9. Makhmadiyeva Ch. Kh. Improving Effective Development Methods of Tourist-Oriented Public Catering Services in the Regions of Uzbekistan // Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. 2026. Vol. 7, Issue 3. P. 194–203. DOI: 10.51699/cajtmf.v7i3.1292.
10. Bekmurodova S. I. Mintaqada innovatsion rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash usullari tahlili // Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024. DOI: 10.71337/inlibrary.uz.scin.61318.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>